

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 60 758,2 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar – 58 728,3 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 1 520,9 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 508,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (6 790,5 mlrd so'm), Bulung'ur (5 907,8 mlrd so'm), Pstdarg'om (5 777,7 mlrd so'm), Kattaqo'rg'on (5 652,8 mlrd so'm), Payariq (5 293,2 mlrd so'm), va Ishtixon (5 232,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (234,5 mlrd so'm), Samarqand shahri (404,8 mlrd so'm) va Nurobod tumanini (1 839,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Samarqand viloyati	60 758,2	103,3
Samarqand shahri.	404,8	100,3
Kattaqo'rg'on shahri	234,5	87,6
Oqdaryo tumani	3 919,4	106,2
Bulung'ur tumani	5 907,8	100,9
Jomboy tumani	3 879,6	100,9
Ishtixon tumani	5 232,8	103,3
Kattaqo'rg'on tumani	5 652,8	106,5
Qo'shrabot tumani	2 537,7	106,0
Narpay tumani	2 929,4	105,4
Payariq tumani	5 293,2	102,0
Patdarg'om tumani	5 777,7	103,4
Paxtachi tumani	2 713,6	106,1
Samarqand tumani	3 122,3	101,3
Nurobod tumani	1 839,5	106,6
Urgut tumani	6 790,5	102,2
Toyloq tumani	4 522,6	102,1

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Nurobod (106,6 %), Kattaqo'rg'on (106,5 %), Oqdaryo (106,2 %), Paxtachi (106,1 %) va Qo'shrabot (106,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Kattaqo'rg'on shahar (87,6 %), Samarqand shahar (100,3 %), Bulung'ur (100,9 %), Jomboy (100,9 %) va Samarqand (101,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 57 963,3 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 28 165,4 mlrd so'mni (104,4 %), chorvachilik mahsulotlari 29 797,9 mlrd so'mni (101,8 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (6 673,2 mlrd so'm), Bulung'ur (6 679,2 mlrd so'm), Pastdarg'om (5 526,9 mlrd so'm) va Kattaqo'rg'on (5 423,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (233,3 mlrd so'm), Samarqand shahri (356,0 mlrd so'm) va Nurobod tumani (1 765,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kattaqo'rg'on (106,8 %), Nurobod (106,6 %), Paxtachi (106,4 %) va Oqdaryo (106,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Kattaqo'rg'on shahri (87,5 %), Jomboy (100,4 %) va Bulung'ur (100,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 59,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 36,6 % fermer xo'jaliklariga, 3,8 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (3 514,8 mlrd so'm), Kattaqo'rg'on (3 463,7 mlrd so'm), Pastdarg'om (2 690,9 mlrd so'm), Toyloq (2 596,3 mlrd so'm) va Ishtixon (2 433,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (226,1 mlrd so'm), Samarqand shahri (302,8 mlrd so'm) va Narpay tumani (1 131,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Oqdaryo (106,0 %), Samarqand shahri (104,3 %), Narpay (103,0 %), Jomboy (102,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Kattaqo'rg'on shahri (88,4 %), Kattaqo'rg'on (99,5 %), Payariq (101,2 %) va Jomboy (101,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 332,8 ming tonna go'sht, 1 468,3 ming tonna sut, 1 399,6 mln dona tuxum, 4 295 tonna qirqib olingan jun, 23,9 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 20,5 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni, sog'ib olingan sut – 100,8 % ni, olingan tuxum – 102,4 % ni, olingan qorako'l teri – 103,7 % ni hamda ovlangan baliqlar – 99,5 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 17,1 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 76,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 9,7 % fermer xo'jaliklari, 89,8 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar- dekabr 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	332,8	102,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	56,9	110,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	254,0	98,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	21,9	131,4
Sut, ming tonna	1 468,3	100,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	142,9	103,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 318,8	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,6	98,3
Tuxum, mln dona	1 399,6	105,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	492,7	103,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	613,0	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	293,9	102,0
Jun, tonna	4 295	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	237,0	106,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3 847,0	103,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	211,0	100,0
Qorako'l teri, ming dona	23,9	103,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,7	116,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	13,9	105,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,3	100,0
Baliq, ming tonna	20,5	99,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	16,6	103,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,4	113,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,5	82,7

Shu bilan birga, olingan tuxumning 35,2 % fermer xo'jaliklariga, 43,8 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 21,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 5,5 % fermer xo'jaliklariga, 89,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 3,1 % fermer xo'jaliklariga, 57,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 38,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 81,1 % fermer xo'jaliklariga, 2,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 16,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<i>Go'sht</i> <i>(tirik vaznda),</i> <i>tonna</i>	<i>Sut,</i> <i>tonna</i>	<i>Tuxum,</i> <i>ming dona</i>
Samarqand viloyati	332 814,0	1 468 328,0	1 399 591,0
Samarqand shahri	3 049,5	7 639,3	65 873,8
Kattaqo'rg'on shahri	2 868,2	6 098,2	782,1
Oqdaryo tumani	14 980,8	85 095,7	64 865,8
Bulung'ur tumani	21 100,6	101 492,2	69 176,2
Jomboy tumani	16 224,9	98 000,1	105 428,7
Ishtixon tumani	23 651,7	142 923,2	81 205,9
Kattaqo'rg'on tumani	39 121,3	158 096,6	81 939,4
Qo'shrabot tumani	19 781,8	68 691,2	35 883,8
Narpay tumani	8 505,5	95 042,0	41 735,4
Payariq tumani	15 773,2	148 176,5	76 103,7
Patdarg'om tumani	28 500,2	143 827,1	92 729,5
Paxtachi tumani	16 063,9	74 293,9	36 548,6
Samarqand tumani	24 638,4	59 021,8	442 938,4
Nurobod tumani	17 290,8	51 942,0	35 248,8
Urgut tumani	39 693,2	136 302,4	95 331,1
Toyloq tumani	41 570,0	91 685,8	73 799,8

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bulung'ur (3 643,0 mlrd so'm), Payariq (3 189,4 mlrd so'm), Urgut (3 158,4 mlrd so'm), Pastdarg'om (2 836,0 mlrd so'm) va Ishtixon (2 713,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (7,3 mlrd so'm), Samarqand shahri (53,2 mlrd so'm) va Nurobod tumani (377,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Nurobod (124,9 %), Kattaqo'rg'on (116,5 %) tumanlari, Paxtachi (112,0 %), Qo'shrabot (111,1 %) va Narpay (106,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Kattaqo'rg'on shahar (71,5 %), Samarqand shahri (86,1 %), Jomboy (99,8 %) va Bulung'ur (99,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	1 686 136,0	102,1
Samarqand shahri.	7 278,4	87,2
Kattaqo'rg'on shahri	329,8	62,9
Oqdaryo tumani	145 307,0	104,1
Bulung'ur tumani	393 434,4	100,9
Jomboy tumani	112 223,8	100,1
Ishtixon tumani	47 364,0	100,2
Kattaqo'rg'on tumani	114 624,5	129,8
Qo'shrabot tumani	20 275,5	104,5
Narpay tumani	86 361,9	95,2
Payariq tumani	162 831,8	98,8
Patdarg'om tumani	151 050,3	94,2
Paxtachi tumani	50 018,5	101,7
Samarqand tumani	66 762,1	97,7
Nurobod tumani	14 301,2	98,1
Urgut tumani	197 198,7	105,1
Toyloq tumani	116 774,1	105,8



Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bulung'ur tumani (23,3 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Payariq (9,7 %), Pastdarg'om (9,0 %), Oqdaryo (8,6 %), Toyloq (6,9 %) va Kattaqo'rg'on (6,8 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (0,0 %), Samarqand shahri (0,4 %) va Urgut tumanida (0,8 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kattaqo'rg'on tumani (129,8 %), Toyloq tumani (105,8 %), Urgut tumani (105,1 %), Qo'shrabot tumani (104,5 %), Oqdaryo tumani (104,1 %), Paxtachi tumani (101,7 %) va Bulung'ur tumanida (100,9 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 779,4 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 0,8 % ga ko'p), sigirlar 759,1 ming boshga (0,4 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 761,6 ming boshga (1,4 % ga ko'p), parrandalar 16 441,7 ming boshga (7,7 % ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 779,4	100,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	127,0	106,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 642,4	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,0	116,8
shundan sigirlar	759,1	100,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	60,0	109,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	695,2	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,9	98,3
Qo'y va echkilar	2 761,6	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	278,3	107,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 327,4	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	155,9	92,8
Otlar	31,9	103,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,1	105,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	23,4	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,4	175,8
Parrandalar	16 441,7	107,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6 491,8	106,7

dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 820,4	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4 129,5	122,6

2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,1 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 7,9 % fermer xo'jaliklariga, 91,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,5 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarining umumiy sonidan 10,1 % fermer xo'jaliklariga, 84,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 39,5 % fermer xo'jaliklariga, 35,4 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 25,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Samarqand viloyati	1 779,4	2 761,6	16 441,7
Samarqand shahri.	7,4	7,6	315,2
Kattaqo'rg'on shahri	8,2	8,5	25,2
Oqdaryo tumani	90,4	43,5	1 219,3
Bulung'ur tumani	118,8	164,1	857,8
Jomboy tumani	103,8	142,5	1 299,5
Ishtixon tumani	149,2	112,7	989,6
Kattaqo'rg'on tumani	173,7	192,6	1 208,7
Qo'shrabot tumani	119,0	460,4	644,6
Narpay tumani	118,7	91,7	502,9
Payariq tumani	115,6	142,8	616,7
Patdarg'om tumani	216,1	182,0	956,5
Paxtachi tumani	105,6	222,5	355,8
Samarqand tumani	53,1	145,8	3 554,7
Nurobod tumani	88,4	658,0	501,0
Urgut tumani	193,3	117,8	716,3
Toyloq tumani	118,2	69,1	2 678,0

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa er uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun etishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Z. Ergashev
66 235-22-01 (3111)

Manzil:
Samarqand shahar Ulug'
Tursunov ko'chasi 82 uy
